

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko‘rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I.** Qoraqalpog‘iston Respublikasi kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot
- II.** Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III.** Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
- IV.** Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari
- V.** Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI.** Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma‘lumot

2026- yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 19 606 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma‘lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta‘minlash maqsadida Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik

Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- yanvar holatiga, birlik	2026-yil 1- yanvar holatiga, birlik
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17 180	19 606
Amudaryo	1 463	1 568
Beruniy	1 526	1 741
Bo'zatov	302	313
Qorao'zak	399	441
Kegeyli	547	621
Qo'ng'iro't	985	1 092
Qonliko'l	464	534
Mo'ynoq	417	564
Nukus	649	776
Taxiatosh	519	577
Taxtak'o'pir	232	262
To'rtko'l	1 945	2 085
Xo'jayli	894	973
Chimboy	728	823
Shumanay	351	467
Ellikqal'a	1 186	1 343
Nukus sh.	4 573	5 426

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirilgan ma'lumotlar.

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-dekabrida 3 602 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 261 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 566 ta, sanoatda 505 ta hamda boshqa xizmatlarda 433 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



■ Iqtisodiy faoliyat turlari

Shahar va tumanlar boʻyicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	3 102	3 602
Amudaryo	243	208
Beruniy	342	275
Boʻzatov	72	62
Qoraoʻzak	50	73
Kegeyli	92	121
Qoʻngʻirot	182	180
Qonlikoʻl	91	131
Moʻynoq	88	138
Nukus	106	133
Taxiatosh	74	103
Taxtakopir	47	41
Toʻrtkoʻl	296	248
Xoʻjayli	148	180
Chimboy	118	123
Shumanay	125	167
Ellikqalʼa	256	231
Nukus sh.	772	1 188

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 65,5 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 66,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 027,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, ya'ni sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 41,3 % ini tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bo'zatov tumani (100,0 %), Beruniy tumani (98,9 %), Ellikqal'a tumani (78,4 %), Xo'jayli tumani (81,8 %) va Taxtakopir tumani (74,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 8 191,5 mlrd so'mni, ya'ni qurilish ishlari umumiy hajmining 82,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xo'jayli (98,7 %), Amudaryo tumani (95,7 %) va Bo'zatov (95,5 %), tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi dinamikasi



2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 13 541,0 mlrd so‘mni, ya‘ni umumiy hajmidagi ulushi 50,1 % ni tashkil etdi. O‘sinh sur‘ati 2024- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 217,1 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Taxtakopir tumani (84,0 %), Shumanay tumani (83,2%), Beruniy tumani (79,7 %) va Qonliko‘l (79,7 %) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 21 623,8 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmidagi ulushi 87,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 98,1 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Xo'jayli tumani (99,0 %), Taxiotosh tumani (98,5 %), Qorao'zak tumani (98,2 %) va Taxtako'pir (98,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 16 160,1 mlrd so'mni, ya'ni umumiy hajmining 97,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,5 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qonliko'l tumani (100,0 %), Kegeyli tumani (99,8 %), Taxtako'pir (99,8 %), va Qorao'zak tumani (99,7%) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 26 040,2 milliard soʻmni, yaʼni umumiy hajmining 74,0 % ini tashkil etdi. Oʻsish surʼati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 115,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng koʻp ulushi Moʻynoq tumani (83,4 %), Taxtakopir tumani (79,7 %), Toʻrtkoʻl tumani (75,2 %), Qoraoʻzak tumani (74,2 %) va Nukus tumani (73,9 %) tumanlariga toʻgʻri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 190 049,0 ming AQSH dollarini, ya'ni umumiy eksport hajmining 43,7 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bo'zatov, Qorao'zak, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l va Ellikqal'a tumanlarida – 100,0 %, ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dynamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 211 030,5 ming AQSH dollarini, ya'ni jami importning 56,2 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida Shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Bo'zatov, Mo'ynoq 100,0 % Shumanay 99,7 va Nukus tumanlarida – 99,4 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy koʻrsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,2 % ni tashkil etdi. 2024- yilning ushbu davriga nisbatan oʻsish surʼati 95,2 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,5 % ni tashkil etgan boʻlib, 2024-yilning ushbu davriga nisbatan oʻsish surʼati 96,7 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yoʻlovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning ushbu davriga nisbatan oʻsish surʼati 99,4 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yoʻlovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,1 % ni tashkil etib, 2024- yilning ushbu davriga nisbatan oʻsish surʼati 99,1 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 39,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida esa 40,0 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 54,2 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 51,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar- dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2025- yilning yanvar-dekabrida 47,9 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2025- yilning yanvar-dekabrida 50,1 % ni tashkil qildi.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 4,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar- dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – 53,1 % ni, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 48,6 % ni va qurilishda – 40,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – 63,0 % ni, qurilish sohasida – 57,4 % ni va savdo sohasida – 50,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi – qurilishda 16,7 %, xizmatlarda – 14,6 % ni va savdoda – 9,6 % ni tashkil etdi.



**Biznesga ishonch muhitini baholash
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)**





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:

A. Kamalov
61 222-78-21 (9530)

Manzil:

Nukus sh., A.Dosnazarov
ko'chasi, 97a.
